



## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

## SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI

**AMIN MAALUFNING “SAMARQAND YOXUD ZULMATDA YO‘QOLGAN ZIYONI IZLAB...” ASARIDA IFODALANGAN SHARQ AYOLLARI OBRAZINING TARJIMADA QAYTA YARATILISHI****Gulsara Kurbanova***filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent,**O‘zbekiston milliy universiteti**Toshkent, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so‘zlar:** “aql va go‘zallik” falsafasi, asar g‘oyasi, muallif uslubi, adekvat tarjima, tarjima transformatsiyasi usullari, milliy kalorit, leksik birliklar.

**Annotatsiya:** Mazkur maqola fransuz yozuvchisi Amin Maalufning “Samarqand yoxud zulmatda yo‘qolgan ziyoni izlab...” asarida sharq ayollarining tipik vakillari bodom o‘g‘risi, malika Turkon Xotun, Bejamin Umar Lesajning “tutingan onasi” va shoira Jahon obrazi tahlilga tortilgan. Unda Amin Maalufning sharq ayollaridagi “aql va go‘zallik falsafasi” Monteskening “Fors nomalari”da tasvirlangan ayollar siymosi bilan hamohang kelishi o‘rganiladi. Matnlardagi dominant belgilar go‘zallik, maftunkorlik, samimiylik kabi xislatlar sharq ayollarini siyrati kabi suratini ham yanada maftunkor qilishi va sharq tasviriy fantaziyasida ularga nisbatan ekzotik tasavvurdan ko‘ra aqllilik tushunchasi munosib ekanligi asliyat va tarjimada tahlil etiladi.

Maqolada asarning g‘oyaviy badiiy asosini tashkil etuvchi matnlarning madaniy va falsafiy asoslarini ifoda etuvchi ba‘zi so‘zlarning tarjimada tushirib qoldirilishi asliyat mazmuniga zarar yetkazishi, muallif uslubi va asar g‘oyasini tarjima tiliga muqobillik bilan o‘tkazishda tarjimaning mazmun-mohiyat birligiga asoslangan kognitiv darajadagi tushunish natijasida tarjimon yaratgan badiiy tarjimasida xalq poetik nutqi, dialoglariga xos leksik birliklar, jumla, gap qo‘shish kabi sintaktik konstruksiyali transformatsiya usullari samarali ekanligi tahlil etilgan. Badiiy asarni tarjima qilishda asar muallifining g‘oyasi, maqsadini interpretatsiya qilishi,

germenevtik yondashuv jihatidan talqin etishda yozuvchi uslubini o'rganish masalasi birinchi o'ringa chiqishi, yozuvchi uslubini o'rganish uchun uning avtobiografiyasi, qiziqishlari, jamiyatdagi mavqeini aniqlash muhim ahamiyat kasb etishi ochib berilgan. Badiiy asar qahramonlari qarashlari, intilishlari yozuvchi va tarjimon uslubi uyg'unligi orqali namoyon bo'lishi aniqlangan.

Yevropa va sharq xalqlari mentalitetiga xos milliy kolorit quyidagi qarama-qarshiliklar asosida asliyat va tarjima matnida tarixiylik va zamonaviylik, zolimlik va ma'rifatparvarlik, mazluma sharq ayoli va hur fransuz ayoli timsolida madaniy-dialog falsafiy hodisasi tarjimada voqelikni qayta yaratishning umume'tirof etilgan usullari, jumladan, germenevtik yondashuv, tavsifiy tarjima, to'g'ri tarjima, o'xshashlarni tanlash, transliteratsiyalar yordamida adekvatlik tamoyillari asosida ochib beriladi.

---

**AMIN MAALUF'S "SAMARKAND OR IN SEARCH FOR THE LOST IN DARKNESS..." RECREATION OF THE IMAGE OF THE WOMEN OF THE EAST IN TRANSLATION**

***Gulsara Kurbanova***

*Doctor of Philological Sciences (DSc), Associate Professor,  
National University of Uzbekistan  
Tashkent, Uzbekistan*

---

**ABOUT ARTICLE**

**Key words:** the philosophy of "reason and beauty", the idea of the work, the author's style, adequate translation, methods of translation transformation, national flavor, lexical units.

**Abstract:** This article examines the image of typical Oriental women, the almond thief, Princess Turkon Khotun, the "captive mother" of Benjamin Umar Lesaj, written in the novel by French writer A. Maalouf "In search of lost Samarkand or darkness...". It explores the "philosophy of mind and beauty" of Oriental women Amin Maalouf in harmony with the female figure depicted in Montesquieu's "Persian Nomes". The dominant characters in the texts are analyzed from the point of view of originality and translation, that qualities such as beauty, flattery, sincerity make the image of Oriental women even more charming, like urination, and that the concept of intelligence is more worthy of them than the exotic imagination in the oriental pictorial fantasy.

The article analyzes that omission in translation of certain words representing the cultural and philosophical foundations of texts forming the ideological and artistic basis of a work harms the originality of the content, effectively in

the artistic translation of a translation created by a translator as a result of understanding the author's style and the idea of working at the cognitive level, based on the translation of a work of art, it is revealed that the idea of the author of the work interpretation of his goal, the question of studying the writer's style comes to the fore from the point of view of the hermeneutical approach, It is important to determine his autobiography, interests, and position in society in order to study the writer's style. It is established that the views and aspirations of the characters of the work of art are manifested through the harmony of the style of the writer and the translator.

The national flavor characteristic of the mentality of the peoples of Europe and the East is revealed in the original text and translation on the basis of the following contradictions, on the basis of historicity and modernity, tyranny and enlightenment, cultural and dialogical philosophical phenomenon in the image of an oriental mazlum woman and a real Frenchwoman based on generally accepted methods.

---

**АМИН МААЛУФ "САМАРКАНД ИЛИ В ПОИСКАХ ПОТЕРЯВШЕГОСЯ В  
ТЕМНОТЕ ВРЕДА..." ПЕРЕВОД ОБРАЗОВ ВОСТОЧНЫХ ЖЕНЩИН,  
ИЗОБРАЖЕННЫХ В ПРОИЗВЕДЕНИИ**

*Гулсару Курбанову*

*доктор филологических наук (DSc), доцент,*

*Национальный университет Узбекистана*

*Ташкент, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

**Ключевые слова:** философия «ума и красоты», идея произведения, авторский стиль, адекватный перевод, методы трансформации перевода, национальный колорит, лексические единицы

**Аннотация:** Эта статья анализирует типичных представительниц восточных женщин в творчестве ливано-французского писателя Амина Маалуфа, в частности, в произведении «Самарканд, или в поисках света, потерянного во тьме...».

Среди рассматриваемых персонажей — «воровка миндаля», принцесса Туркон Хотун, «приемная мать» Бенжамина Омара Лесажа и поэтесса Жахон.

Статья исследует, как философия Амина Маалуфа «ума и красоты» восточных женщин перекликается с изображением женщин в произведении Монтескье «Персидские письма».

Доминирующие черты в текстах, такие как красота, очарование и искренность, делают образ восточных женщин еще более пленительным, а концепция интеллекта представляется более уместной, чем экзотические фантазии, встречающиеся в восточной живописной традиции.

В статье обсуждается, как опущение определенных слов, представляющих культурные и философские основы текста, которые формируют идеологическую и художественную

основу произведения, может нанести ущерб оригинальности содержания. В ней также анализируется, как художественная интерпретация переводчика может эффективно сохранить единство смысла, основанного на когнитивном понимании авторского стиля и идеи произведения. Интерпретация цели автора и изучение стиля писателя выходят на первый план с точки зрения герменевтического подхода. Понимание автобиографии автора, его интересов и положения в обществе является ключевым аспектом для изучения его стиля. Взгляды и устремления персонажей художественного произведения раскрываются через гармонию стилей писателя и переводчика. Национальный колорит, характерный для менталитета народов Европы и Востока, раскрывается в оригинальном и переведенном текстах на основе противоречий, таких как историчность и современность, тирания и просвещение. Это культурно-диалогическое философское явление исследуется в изображении восточной угнетенной женщины и свободной французской женщины через общепринятые методы воссоздания реальности в переводе, включая герменевтический подход, описательный перевод, прямой перевод и принципы адекватности через подбор аналогий и транслитерации.

## KIRISH

Fenomenga oid (faqat hodisalarni bilish mumkin, ammo ularning mohiyatini bilib bo'lmaydi, deb da'vo qiluvchi idealistik ta'limot) yondashuvi doirasida E.Guserlning tushunishga bo'lgan qarashini ma'nolarni qo'shimcha tahlillarsiz faqat reflektiv tarzda anglashga qiyoslash mumkin. Uningcha, "shaxs "men"ligi aniqlashtirgan obyektiv real manzara subyektning ichki hislari orqali aniqlashtirilgan manzaraga teng bo'ladi". Haqiqatan ham, aniq hodisa shaxs ongining in'kosi natijasidir, shu bois aynan bir xil predmet, jumladan, matn ham turlicha usulda beriladi. Ma'no hosil qiluvchi vositalar semantik ma'noni aniqlab qayta ifodalashga ko'ra muvaffaqiyatli tarjima yechimi hisoblanadi. Agarda matn mazmuni asliyatni ifodalasa, matnda aks etmagan vositalarni tarjima xatosi sifatida tasniflab bo'lmaydi, sababi, ushbu holat til va mazmun me'yorlariga zarar yetkazmaydi.

P.Nyumark ham tarjimon xatolari haqida gapirganda tarjimonning til kompetensiyasi natijasida yuzaga kelgan tarjima muammolari bilan tarjimonning asliyat g'oyasini ifodalashga harakat qilishi oqibatidagi o'zgarishlarni aralashtirib yubormaslikni ta'kidlaydi. Olimning fikricha, ijodiy cheklanishlarni tarjima yechimi sifatida uch turga bo'lish mumkin:

1. Informativ tipdagi matnlar uslubini tahrirlash lozim, chunki bunday matnlar muallifining hammasi ham matn mazmunini yetarli (to'liq) sharhlash malakasiga ega bo'lmaydi.
2. Tarjima matni badiiy sifatining asl matnga nisbatan yuqori darajadali.
3. Badiiy matnlarni, jumladan, she'riy matnlarni tarjima qilishda turli xil majoziy ifoda vositalarini berishda kompensatsiyadan foydalanish<sup>1</sup>.

Ko'plab amaliyotchi tarjimonlar asossiz ravishda asliyat mazmunini "mukammallashtirish"ga urinadilar. Ular badiiylik darajasi yuqori bo'lgan, biroq ko'plab ma'no hosil qiluvchi elementlari imlitsit tarzda ifodalangan matnlarni "zerikarli", "kambag'al", "badiiylik" elementlariga boy emas, deb hisoblaydilar. Tarjimaga bunday yondashuv, A.D.Shveyser nazariyasiga ko'ra, tarjimon qalami muallif uslubi singari o'tkir bo'lsa, tarjimada turli xil "ortiqcha zeb berish"lardan foydalanishi mumkin: "Muallifni tarjimada qayta yaratishda iqtidorli tarjimon, eng avvalo, uning ruhiyatiga, g'oyalarining mohiyatiga va so'ngra mazkur

<sup>1</sup> Newmark P. Theory and Practice of Translation. - Bern: Peter Lang, 1988. – C.15.

g'oyalarga muvofiq keluvchi obrazlarga e'tibor qaratadi" Badiiy tarjimani ilmiy tadqiq etish asl manbadan alohida olingan so'z yoki jummalarni tarjimon qanday o'giranligini tahlil etish emas, balki muttarjim matn tarjimasida qo'llagan baholash mezonini va talqinini asoslash demakdir. Tarjimashunos olim G'.Salomov ta'kidlaganidek, asliyat matnini tarjimada qayta yaratish jarayoni uch bosqichda amalga oshadi:

1. Asliyatni tarjimon qanday qabul qilishi yoki qay darajada tushunib yetishi.
2. Asarning g'oyasi, avtorning maqsad-muddaosi va uning o'ziga xos uslubini qay tarzda talqin qilishi.
3. So'z san'ati namunasini o'z ona tilida qayta tiklashda muqobil vosita, usul va yo'l topa olishi<sup>2</sup>.

Albatta, badiiy asarni tarjima qilish asliyatning asosiy omili bo'lgan lug'at boyligini tarjima qilinayotgan tilning lug'ati bilan almashtirib qo'yish emas, balki tarjimon-muallifning dunyoqarashi, original matn konsepsiyasini to'g'ri anglashi, aynan asarda aks etgan so'z boyligini qayta ifodalay olishidan iborat.

Zero, badiiy asar tarjimasini – eng uzoq va mashaqqatli jarayon bo'lib, har qanday tarjimon uchun nafaqat ikki tilda bilim, balki ikki madaniyatni bilish darajasiga ega bo'lishi uchun o'ziga hos chaqiriqdir. Bundan tashqari asliyatda ifodalangan ma'noni har doim ham to'liq yetkazish mumkin emas. Asliyat matniga yaqin tarjimada asar qahramonlarining xarakteri va shaxsiyatining o'ziga xosligi muallif g'oyasining bir qismi sifida namoyon bo'ladi. Badiiy tarjimaning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular nafaqat asl matn mazmunini, balki tarjimonning asl matnini qay darajada qabul qilishi bilan ham bog'liq.

Jahon tarjimashunosligi ilmiy maktablarida milliy-madaniy o'ziga xoslik va uni tarjimada qayta yaratish muammolariga doir tadqiqotlarni olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Madaniyatning xususiyatlari tilda milliy-madaniy birliklar til birliklari ma'nosini ifodalaydi va ularning ishlatilishiga ta'sir ko'rsatadi. Shunga qaramay madaniyat u yoki bu darajada "avtomatik" tarzda matnga tilning madaniy konnotatsiya belgilarini olib kiradi hamda madaniy-tarixiy voqealar, an'analar, urf-odatlarini tavsiflovchi obyekt vazifasini bajaradi. Zero, har bir tildan ikkinchi tilga tarjima, odatda, bir madaniyatni boshqa madaniyatga o'girish ma'nosida tushunilishini bir necha bor ta'kidladik. Tarjimani mukammal amalga oshirish uchun lingvistik bilimlar bilan birga ekstralingvistik bilimlar ham muhim sanaladi. Albatta, bularning barchasi murakkab, til va madaniyatning ko'p bosqichli jarayonlari ta'sirida ro'y beradi.

Tarjima bir-biridan farq qiladigan ikki madaniy birlashma vakillari orasidagi kommunikativ faoliyat sifatida madaniy to'siq muammolarini hal etadi. "Tarjimaning ikkiyoqlama xarakteri, ya'ni tarjima qilinayotgan asliyat matniga tegishli madaniyat sohiblari va tarjima matniga tegishli madaniyat sohiblarining bir-birini tushunishlarini ta'minlab beradi" . Tarjima jarayonida madaniy faktorlarning ta'sirini tan olgan holda ularning ahamiyatini haddan ziyod oshirib yubormaslik lozimki, bu yorug' olamning asosini me'yor saqlab turadi. Tarjimaning madaniy-etnografik konsepsiyasi madaniy farqlarning rolini ko'chaytiradi, unga ko'ra "...tillar emas, balki madaniyatlar tarjima qilinadi"<sup>3</sup>.

Yaqin kunlarga qacha sharq obrazi g'arb adabiyotida begona madaniyat vakili nigohida yaxshi o'rganilgan bo'lsa-da, bugungi kunda sharqni sharqliklar nuqtayi nazaridan tadqiq etish, sharq madaniyati va falsafiy qarashlarini ifodalashda nafaqat lingvistik ham filologik, ham tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish sharqshunos E.Saidning "Orientalizm" asarida ta'kidlaganidek, "Sharq sharqliklar nigohida qanday talqin etiladi?" mazmunidagi sharqshunoslar oldida yangi ilmiy izlanish muammolarini ko'taradi<sup>4</sup>.

Shu bois madaniy tadqiqotlarning alohida ahamiyatini ko'rsatishda livanlik frankofon yozuvchisi Amin Maalufning ijodi tarixiy janrlar yo'nalishini tanlashi bilan alohida ahamiyatga

<sup>2</sup> Саломов Г. Таржима назарияси асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1983.– Б.74.

<sup>3</sup> Комиссаров В.Н. Теория перевода: лингвистические аспекты. – М.: Высшая школа, 1990.– Б.112-113.

<sup>4</sup> Sophie Fenouillet, « Edward Said, l'Orientalisme. L'Orient créé par l'Occident », in *persée*, en ligne, [https://www.persee.fr/doc/mots\\_0243-6450\\_1992\\_num\\_30\\_1\\_1691](https://www.persee.fr/doc/mots_0243-6450_1992_num_30_1_1691), (consulté le 27/02/2022 à 11h15).

ega. Tarixiy romanlar janri o'zining bir xillikka ega bo'lmagan qarama-qarshi hodisalarni aks ettiradi. Bu xususida Vilgelm Fridrix Gegel o'z asarlarida tarixiy asarlar, shubhasiz, zamonaviy muammolarni o'zida translyatsiya qiladi, o'tmishda ko'tarilgan muammoning o'z zamonasida dolzarbligi, biroq o'z davri uchun tushunarli emasligini izohlashda yoxud tarixiy hodisalarga zamonaviy hodisalardan manba qidiradi, deya ta'kidlashi juda o'rinli. Shuning uchun ham tarixiy romanlar janri faqatgina o'zi tegishli bo'lgan davrning madaniy-tarixiy faktlarini aks ettirishi bilan emas, balki unda yashayotgan asar muallifining dunyoqarashini aks ettirishi bilan ham qiziqarli. Yozuvchi tomonidan tarixiy janrlarga murojaat qilinishi yozuvchining ma'lum bir xalq milliy o'ziga xosligini ajratib ko'rsatishga va vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirishga xizmat qiladi. Amin Maaluf ijodida aynan ana shunday tarixiy voqealar birgina xalq tarixiga bag'ishlanmaydi, balki unda O'rta Osiyodan to Shimoliy Afrikagacha bo'lgan butun bir madaniy region sharq aks etganini ko'rishimiz mumkin.

## MUHOKAMA / NATIJALAR

Sharq qadim zamonlardan beri ayollar obrazi sharq harami, go'zal va ehtirosli ayollar, ekzotizm tushunchalari asosida, odatda, g'arblıklar tasavvurida noto'g'ri shakllanib kelgan. Fransuz adabiyoti va frankofon yozuvchilari, xususan Amin Maaluf sharqning sirli tavsifini berishdan to'xtamaganligi sababli, mazkur xalq mentalitetiga xos noto'g'ri qarashlarni o'zgartirdi. Uzoq vaqtdan buyon tarixga singib ketgan stereotiplarni o'zgartirish orqali Amin Maaluf sharq ayollarining eskilik sarqitlaridan qutilib, bir tomondan xarizmatik (ko'rkam, jozibali), ikkinchi tomondan halokatli, biroq o'z qadr-qimmatini biladigan ayol obraziga o'tkazish orqali badiiy adabiyot tarixida o'ziga xos qo'zg'olon xarakterini yaratadi. Mazkur obrazning tarjima tili vositasida qayta yaratilishi sharq madaniyati olamining o'ziga xos inson tafakkurida kechadigan ichki qarama-qarshiliklarini yangi qiyofa hosil qilishiga sabab bo'ladi.

M.M.Morozov aytganidek, "...asl nusxaning milliy o'ziga xosligi jamiyat tarixi, xalq tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun ham asl nusxaning ma'lum bir millat tarixi bilan bog'liq elementlari alohida e'tibor talab qiladi".

Muallif o'z romanida sakkiz asr farq bilan ikki davrni tafakkur prizmasidan o'tkazadi. Ko'rinmas ip bizga butun roman davomida barcha ayol qahramonlarning obrazini ochib beradi. Biz romandagi barcha toifadagi qahramonlar(bosh va ikkinchi darajali, tarixiy yoki to'qima qahramonlar) orasidan sharq ayollari obrazining tipik vakili bo'lgan ba'zi ayollarga, jumladan, bodom o'g'risi, malika Turkon Xotun, Bejamin Umar Lesajning "tutingan anasi" va shoira Jahonning siyomosida yozuvchi pozitsiyasidan ifodalangan sharq ayollaridagi jasorat, oqilalik, o'z qadr-qimmatini hayotiy ehtiyoj darajasiga qo'yganligini tarjimon qay yo'sinda o'zbek kitobxoniga yetkazib berganligini tahlilga tortish muhim.

Badiiy asar tarjimoniga badiiy matn g'oyasini sharhlashda faqatgina matnni tushunishi emas, balki so'zlar orqali tavsiflangan obrazlar va holatlarni ham yaqqol ko'ra olishi yaqindan yordam beradi. Zero, so'z doim umumlashtiruvchi xususiyatga ega bo'ladi, uning mazmuni kommunikatsiya jarayoniga bog'liq, agarda yozuvchi va tarjimon uchun buyumlar, predmet yoki obyektlar haqida so'z ketayotgan bo'lsa, uning ma'nosi konkret mazmun bilan to'ldiriladi, so'zlovchi va tinglovchining nutqini hosil qilishda aniq tasavvur va obrazlar paydo bo'ladi. Xuddi shunday kitobxon ham matnda o'ziga tanish bo'lgan real obyektlarning tasvirini aniq tasavvur etadi.

1. Umar Xayyomning Samarqandda kechgan ilk kunlari Samarqanddagi eng gavjum joy bo'lgan qalampir bozorini aylanishdan boshladi, chunki u Xitoy darvozasigacha cho'zilgan yam-yashil bog'laru, sug'orish shahobchalari hamda Samarqandga xos bo'lgan madaniy obidalar, asoru atiqalari bilan mashhur bo'lgan ko'hna zaminni o'z ko'zi bilan ko'rishni niyat qilgandi. Xayyom atrofni suqlanib tomosha qilib ketayotganida uning qarshisidan chodirasi ko'tarib qo'yilgan 15 yoshli ma'suma bir homilador ayol bir og'iz ham so'z demasdan Xayyomning endigina xarid qilgan qovurilgan bodomidan bir siqim oladi. Sharqliklarning odatini bilgan Umar

Xayyom bu irim-sirimdan sarosimaga tushmaydi. Ushbu sahna asliyatda quyidagicha tasvirlangan:

**Asliyatda:**

Place des marchands de fumée, une femme enceinte aborde Khayyam. Voile retroussé, elle a quinze ans à peine. Sans un mot, sans un sourire sur ses lèvres ingénues, elle lui dérobe des mains une pincée d'amandes grillées qu'il venait d'acheter. Le promeneur ne s'en étonne pas, c'est une croyance ancienne à Samarcande: lorsqu'une future mère rencontre dans la rue un étranger qui lui plaît, elle doit oser partager sa nourriture, ainsi l'enfant sera aussi beau que lui, avec la même silhouette élancée, les mêmes traits nobles et réguliers .

Ushbu parchadan biz muhim deb hisoblagan elementga e'tiboringizni qaratamiz. Ayollar uchun ajdodlar an'anasiga ko'ra, erkaklarga to'liq bo'ysunish talabalari qo'yilganligiga qaramay, yozuvchi sharq ayoli bir odamga va buning ustiga, butunlay begonaga yaqinlashishga jur'at etish imkonini beradi. Ayol o'z his-tuyg'usini ochiq oshkor qilishga jur'at etadi. Bu esa samarqandliklar o'sha davrlarda madaniyat o'chog'i bo'lganligi bois shariat hukmron bo'lgan murosasiz boshqa shaharlarga qaraganda ancha bag'rikengroq bo'lganligini va ayolning erkin shaxs sifatida o'z qadr-qimmatini borligini tan ola boshlagan shahar an'analarini ko'rsatadi. Yozuvchi tasvirida bu ayol bodom o'g'risi, ayni paytda, o'z zurriyodining taqdiri uchun qayg'urayotgan jasur ayol timsolida gavdalanadi.

**Tarjimada:**

*Xayyom atrofga suqlanib boqib kezar ekan, chilim sotuvchilar rastasi yonidan chiqib qoldi. Bir homilador ayol unga tikilganicha yaqinlashib keldi. Qizchalarnikidek latif lablarini qisganicha, bir so'z ham qotmasdan, yalang'och bilakchalarni cho'zib, hozirgina xarid qilingan qovurilgan bodomidan bir hovuch uzatdi. Chodirasi ko'tarilib qo'yilgan ushbu ma'suma ayolning yoshi o'n beshlarda bo'lsa kerak. Xayyom bu xayru sadaqadan esankirib qolmadi. Bunday udum samarqandliklarda qadimdan mavjudligini bilardi: bo'lajak onaning ro'parasidan kelishgan, xushqomat yo'lovchi chiqib qolsa, u tug'ilajak go'dagi ana shu kishiga o'xshashini tilab, qo'lidagi yeguliklarni yo'lovchi bilan baham ko'rishi kerak.*

Bizning tahlilimizda ushbu parchada asliyat va matn tafovutlari quyidagicha: asl matndagi *“Voile retroussé, elle a quinze ans à pleine”, “sans un sourire sur ses lèvres ingénues”, “un étranger qui lui plaît”* jumalari tarjima matnida: *“Chodirasi ko'tarib qo'yilgan ushbu ma'suma ayolning yoshi o'n besh yoshlarda bo'lsa kerak”, “qizchalarnikidek latif lablarini qisganicha”, “unga yoqqan notanish kishi”* mazmunida obrazli adekvatlikka ega, shuningdek, asl matnda yo'q *“Xayyom atrofga suqlanib boqib kezar ekan”, “yalang'och bilakchalarini cho'zib”* kabi jumalar tarjimon tomonidan matn mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun erkin qo'llanilgan. Tarjimon xayru sadaqa berish udumini *“Xayyom bu xayru sadaqadan esankirib qolmadi”* jumlasini orqali ifodalab, xos so'zlarning tasviriy usulidan foydalangan. Asl matnda mazkur udum nomi berilmagan. Ushbu matn tarjimasida *“ayol xayr-ehson berdi”* ma'nosi ifodalangan, asliyatda esa homilador ayol bolasining chiroyli va kelishgan, aqlli bo'lishini tilab notanish yo'lovchi qo'lidan yegulikni olib yeydi. Chunki birovdagi yaxshi xislat o'ziga ham o'tishi uchun irim qilib o'sha insondan yegulik yoki buyum olinadi. Biz shu o'rinda muallif va tarjimonning tafakkuridagi olamning lisoniy manzarasi ikki xil namoyon bo'lganligini ko'ramiz. Tarjimon shu o'rinda asliyatda tasvirlangan udumni amalga oshirish detallarida bir oz chalkashlikka yo'l qo'ygan. Tarjimon sharqliklarning ehson tarqatish udumiga asoslanib, *“Umar Xayyom go'yoki xayr-sadaqani ayol qo'lidan qabul qildi”*, degan mazmuni beradi. Asliyatda esa, aksincha, notanish erkakdan ayol so'ramasdan shartta bir siqim bodom o'g'irlab oladi.

Fransuz yozuvchisi sharq ayollarining ham o'z erki, insoniy qadr-qimmatini borligini his etgan yosh ma'suma jasur ayol timsolida tasvirlaydi. Tarjimon esa uni udumga aylantirib, nazarimizda, yozuvchining sharqda uyg'ongan hur sharq ayoli tushunchasini yo'qqa chiqargan.

Fikrimizcha, tarjima quyidagicha berilsa, badiiy obrazni ochishda yozuvchi pozitsiyasini ifodalashda muqobilikka erishish mumkin:

**Bizning tarjima variant:**

*Chilim sotuvchilar rastasi maydonida bir homilador ayol Xayyomga yaqinlashdi. Chodiraga o'ralgan, o'n besh yoshlar chamasi, bir og'iz so'z aytmadan, lablarini qisganicha tabassum qilmasdan, uning qo'ldan hozirgina sotib olgan qovurilgan bodomdan bir siqimini "o'g'rilab oldi". Xayyom ayolning bu harakatidan esankirib qolmadi. U bunday udum samarqandliklarda qadimdan mavjudligini bilardi: bo'lajak onaning ro'parasidan kelishgan, xushqomat yo'lovchi chiqib qolsa, u tug'ilajak go'dagi ana shu kishiga o'xshashini tilab, o'sha yo'lovchi yeguligidan yeb ko'rishga jur'at etishi kerak.*

Bu parchada yozuvchi ong osti tafakkurida turmush o'rtog'i, otasi, aka-ukasiga tobe bo'lgan ayolni beixtiyor o'zini ozod qilish uchun urinishini ko'rsatish orqali g'arb tushunchalari sharqona ruhning eng chuqur joylarigacha yetib borganligini ko'rsatadi. Amin Maaluf sharq ayoli, ayniqsa, homilador ayolning erkini qadrlashga urinishini qo'llab quvvatlaydi.

**2. Xitoylik Turkon Xotun.** Asarda malika Turkon Xotun – Saljuqiy Malik shoh rafiqasi va Samarqand hokimi Nasrxonning singlisi. Uning obrazida Malik shohni davlat ishlarini boshqarishga yo'naltira olgan kuchli ayol timsoli tasvirlangan. Unga faqat vazir Nizomulmulk qarshi tura olgan. Nizomulmulk barcha buyuk kishilarda bo'lganidek, o'ziga yoqmagan kishilar ustidan kulish, ularga kesatq gaplar qilishdan o'zini tiya olmaganini "Siyosatnoma" asarida "Parda ostida yashaydigan xotinlar" nomli qirq uchinchi bobda Turkon Xotunga bergan tavsifini o'qigan Umar Xayyom ming'iyda kulib qo'yadi:

**Asliyatda:** "A une époque ancienne, écrit Nizam, l'épouse d'un roi prit un grand ascendant sur lui, il n'en résulta que discorde et troubles. Je n'en dirai pas plus car chacun peut observer à d'autres époques des faits semblables" Il ajoute : "Pour qu'une entreprise réussisse, il faut faire le contraire de ce que disent les femmes"<sup>5</sup>.

Tarjimon ushbu matn parchasida ma'no-mazmun bog'liqligini e'tiborga oladi. O'zbek tilining ifoda uslubidan kelib chiqqan holda leksik birliklar transformatsiyasida asliyatdagi "écrit Nizam", "Je n'en dirai pas plus car chacun peut observer à d'autres époques des faits semblables", "Il ajoute", "Pour qu'une entreprise réussisse" jumllarini tarjimada tushirib qoldirgan. Shuningdek, asliyatning semantik mazmunini to'liq saqlashga xizmat qilgan "o'z eriga", "uning har bir xarxashasi", "Qissadan hissa shuki, bizning zamonimizda" kabi jumllarni qo'shgan. Natijada, asliyat mazmunini to'liq ifodalagan badiiy uslubi ravon muqobil tarjima varianti yaratilgan: **tarjimada:** "Qadim zamonlarda bir malikaning o'z eriga, podshohga ta'siri shunchalik katta ekanki, uning har bir xarxashasi o'zaro kelishmovchiliklar va g'alayonlarga sababchi bo'larkan. Qissadan hissa shuki, bizning zamonimizda ham bu holat ko'z oldimizda sodir bo'lyapti. Demak, har qanday ishda zafar qozonishni istagan xotinlar aytilgan gapning teskarisini qilishini unutmang"<sup>6</sup>.

Amin Maaluf personaji Turkon Xotun o'z o'quvchisiga sharqona ayollarning yangi qiyofasini beradi, u o'zining qo'rquvini hisobga olmagan holda, eng og'ir va o'tkir tushkunliklar, yiqilishdan keyin qanday orqaga qaytishni, nima istayotgani va unga qanday erishish kerakligini biladi. Bu obraz o'sha davrlarda uyda o'tirib faqat to'qishdan boshqa narsani bilmaydigan an'anaviy tarzda umr kechiradigan zaif ayollar obraziga qarama-qarshi qo'yiladi.

3. Tutingan ona obrazining tarjimada berilishi. Sharq xalqlarida shunday udumlar borki, ularni faqat mazmunini ta'riflash orqali tushunish mumkin. Asar qahramoni Umar Lessaj shoir, astronom, faylasuf olim Umar Xayyom ruboiylarini Eron bo'ylab qidirib yurganida, sharqliklar udumi bilan bog'liq sarguzashtlarni boshidan kechiradi. Ana shunday sarguzashtlardan biri uni sharq xalqlarining o'ziga xos turmush tarzi va madaniyati bilan yaqindan tanishishiga imkon beradi. Quyidagi "o'g'il tutinish" udumi haqida fransuz va o'zbek o'quvchilarining dunyoqarishida hosil bo'lgan tushunchalarning tahliliga e'tibor qaratamiz:

**Asliyatda:**

Comment mieux détourner la difficulté que par le geste rituel de l'adoption symbolique? Désormais, je pouvais circuler à ma guise dans la maison, me coucher dans la même chambre,

<sup>5</sup> Maalouf A, Samarcande, P. 141.

<sup>6</sup> Монтеस्कье, ўша асар. – Б.177.



apposer un baiser sur le front de “mes sœurs”, nous étions tous protégés, et puissamment tenus, par la fiction de l’adoption(192)..

**Tarjimada:** Shu bilan birga u mendek begona yigit yosh qizlari bilan yonma-yon yashab, biror nojo‘ya harakat sodir bo‘lishining oldini olgandi. Bunday mushkulotdan qutilishning yagona yo‘li – ota-bobolar udumiga binoan meni tutingan o‘g‘ilikka qabul qilish uning xayoligi kelganiga qoyil qolish kerak! (298).

Tarjimon asliyatda ifodalangan “l’adoption symbolique” iborasini “ramziy o‘g‘ilikka qabul qilish” jumlasini orqali tasviriy usulda ifodalaydi. Ushbu udum tavsifini tushunish uchun o‘quvchi tarjimonning asliyat matnida tasvirlangan detallariga e‘tibor qaratadi. Mazkur gap to‘laligicha sintaktik transformatsiya jihatidan ikki til matnida o‘zaro farq qilsa-da, semantik transformatsiyasiga ko‘ra o‘zaro mos keladi. Sharqda emikdosh bolalar bir ota-onaning farzandlari bo‘lmasa ham, tutingan aka-singil hisoblanadi. Yozuvchi bu ayol obrazida sharq xalqlarga xos qadr-qimmatga ta’sir ko‘rsatadigan nozik masalalarga ishora qiladi, ya’ni qochqin bo‘lsa-da, u onaning tutingan o‘g‘li, shuning uchun ham u onalarga xos jasorat bilan uni himoya qilishini ta’kidlaydi.

Amin Maaluf qahramoni tutingan onasining mardligi va jasoratiga qoyil qolib, intuitiv ravishda haramdagi ayollarning maftunkor go‘zalligini ham xuddi musavvirdek tasvirlaydi. Sharq ayollarining uyida yashaganda ularning mehmonnavozligi va insoniylik tuyg‘ularini, paranjisiz yuzi ochiq ayollar Umar Lessaj ta’biri bilan aytganda:

**Asliyatda:** “Comme par miracle, tout devint simple, limpide et pur. Dire que le désir était mort serait mentir, tout dans nos rapports était éminemment charnels, et pourtant, je le répète, éminemment purs. Ainsi vécus-je dans l’intimité de ces femmes, sans voiles ni pudeurs excessives, au coeur d’une ville où j’étais probablement l’homme le plus recherché, des moments de paix nonchalante”<sup>7</sup>;

**Tarjimada:** “Xuddi ertaklardagidek munosabatlarimiz judayam samimiy, tiniq va sof edi. Aytishim joizki, hissiyotlarimga qanchalik erk bergan bo‘lmay, bu harakatlar oliy darajadagi qon-qardoshlik, ona-bola, aka-singillik munosabatlarining xuddi o‘zginasi edi. Shunday qilib, men ana shu paranjisiz, yuzi ochiq ayollar o‘rtasida, ortiqcha uyatchanlikka berilmay, butun shaharda meni qidirib yurgan, hayotim, ozodligim omonat bo‘lib turgan bir vaziyatda tinchgina yashay boshlagandim” .

Tarjimon matn adekvatligini ta’minlashda sintaktik transformatsiyadan foydalanadi, asliyatdagi “Dire que le désir était mort serait mentir, tout dans nos rapports était éminemment charnels, et pourtant, je le répète, éminemment purs” mazmunidagi butun gap mazmuni matnni kognitiv tushunish darajasiga ko‘ra tarjimada etnomadaniy tushunchalarni ochib berish asosida asliyat mazmunini saqlagan holda “Aytishim joizki, hissiyotlarimga qanchalik erk bergan bo‘lmay, bu harakatlar oliy darajadagi qon-qardoshlik, ona-bola, aka-singillik munosabatlarining xuddi o‘zginasi edi” mazmunida ochib berilgan.

Umar Lessajning rasmiy o‘g‘ilikka qabul qilinishi va uning ayollar muhitiga tushib qolib, ularni chodirasiz yaqindan ko‘rib gaplashishi natijasida ularning nafaqat tashqi go‘zalligi, balki ichki go‘zalligi ham sharq ayollariga alohida ulug‘vorlik baxsh etishini tan oladi.

Shuning singari sharq ayollarining go‘zalligi, samimiyliigi, mehribonligi, ehtirosiligi Monteskening “Fors nomalari”da ham qayd etiladi. Masalan, **asliyatda:** “Quand vous relevez l’éclat de votre teint par les plus belles couleurs; quand vous vous parfumez tout le corps des essences les plus précieuses; quand vous vous parez de vos plus beaux habits; quand vous cherchez à vous distinguer de vos compagnes par les grâces de la danse et par la douceur de votre chant; que vous combattez avec elles de charmes, de douceur et d’enjouement, je ne puis pas m’imaginer que vous ayez d’autre objet que celui de me plaire; et quand je vous vois rougir


<sup>7</sup> Ibid. – P.205

modestement; que vos regards cherchent les miens; que vous vous insinuez dans mon cœur par mille paroles douces et flatteuses, je ne saurais, Roxane, douter de votre amour”<sup>8</sup>;

**Tarjimada:** Husni tarovati zeboligiga eng chiroyli ranglar bilan oro berganingda, borliq tanangga eng samin va muattar atir-upalarni sepganingda, eng go‘zal liboslarini kiyganingda, raqslarning latofati va qo‘shiqlarini yoqimliliigi bilan dugonalarindan ajralib turishga intilishingda, maftunkorlik, royishlik, nozikadonlikda ular bilan bahslashganingda yagona maqsad – menga maqbul bo‘lmoqdan o‘zga niyating borligini ko‘z oldimga keltira olmayman; sipolik bilan qizarganingni, nigohlaring meni nigohimni qidirayotganligini, erkalatuvchi va muloyim so‘zlar bilan qalbinga sezdirmaygina kirayotganing ko‘rganimda, muhabbatingga shubha qilmayman, Roksana<sup>9</sup>.

Monteske uslubida sharq madaniyati ramzi bo‘lgan ayollarga nisbatan falsafiy qarashlari mazkur matnda batafsil ifodalangani bilan ajralib turadi. Tarjimon yozuvchi uslubiga mos strategiyani qo‘llagan holda asliyat matni parchasini tarjima tilidagi deformatsiyasi adekvatligini o‘zbek tiliga xos so‘z o‘yinlarini qo‘llagan holda amalga oshiradi, masalan, “*que vous combattez avec elles de charmes, de douceur et d’enjouement*” (so‘zma-so‘z: ular bilan joziba, muloyimlik va o‘ynoqilikda bahslashganingizda), “*maftunkorlik, royishlik, nozikadonlikda ular bilan bahslashganingda*”, “*que vous vous insinuez dans mon cœur par mille paroles douces et flatteuses*” (so‘zma-so‘z: ming muloyim va xushomadli so‘zlar bilan qalbinga kirganingda), “*erkalatuvchi va muloyim so‘zlar bilan qalbinga sezdirmaygina kirayotganing ko‘rganimda*” kabi obrazli so‘zlar orqali asliyatning semantik mazmuni to‘liq saqlangan. Ushbu holatda matnning eksplitsit ifodasini tarjimada ifodalashda faqat leksik transformatsiya emas, balki sintaktik struktura ham rol o‘ynaydi, fransuzlarda murojaat formasida kishilik olmoshining “vous”, o‘zbeklarda “sen” tarzda ishlatilishi, tarjima matnini o‘zbek madaniyatiga yaqinlashishiga yordam bergan.

Demak, Monteskening sharq ayollariga nisbatan maftunkorligi Amin Maaluf qarashlarida ham aks etadi. Ularning ikkalasi ham so‘zlari va matnlarida sharq ayollarining jismoniy go‘zalligi va qalb go‘zalligi uyg‘unlashganini tasvirlaydi. Xususan, Monteskening “**aql va go‘zallik falsafasi**”da “...joziba yuzdan ko‘ra ko‘proq aqlda (ongda) bo‘ladi, chunki yuzning go‘zalligi darhol yaqqol namoyon bo‘ladi va hech qanday kutilmagan narsani yashirmaydi; lekin aql inson xoxish-irodasiga ko‘ra asta-sekin o‘z qirralarini ochib boradi”<sup>10</sup>. Biz buni quyidagi diagrammada umumlashtiramiz:



Amin Maaluf va Monteske turli davrlarga mansub yozuvchilar bo‘lsa-da, ularni birlashtiradigan dominant element bu sharq ayollarining go‘zalligiga maftun bo‘lish. Matnlardagi dominant belgilar go‘zallik, maftunkorlik, samimiylik kabi xislatlar sharq ayollarini siyrati kabi suratini ham yanada maftunkor qilishi va sharq tasviriy fantaziyasida ularga nisbatan ekzotik tasavvurdan ko‘ra aqllilik tushunchasi munosib ekanligi ta‘kidlanadi.

4. Shoira Jahon obrazining badiiy talqini. Gaston Bachelard, Mircea Eliade, va Gilbert Durand kabi adabiyotshunoslarning gumanistik loyhasini o‘rganish mavzusi xayoliy va sezgirlik olami, rasmlar, belgilar va aqlga qarshi tasavvurlarni g‘arb tafakkur tarziga qarshi qo‘yishdan iborat. Masalan, Gilbert Durand o‘zining “*Les structures anthropologiques de l’imaginaire*” nomli asarida tasvirlangan makaziy g‘oyasi inson tasavvurlarini birlashtirish orqali ijtimoiy

<sup>8</sup> Solène Brunet, « Auto stéréotypes et hétéro stéréotypes dans les Lettres persanes de Montesquieu », in Chevrel, (en ligne), <http://chevrel.pagesperso-orange.fr/dossiers/brunet.htm>, (consulté le 27/02/2022 à 21h32).

<sup>9</sup> Монтеस्कье. Ўша асар. – Б.48.

<sup>10</sup> <https://stuki-druki.com/Aforizmi-monteskje.php?page=1>.

ma'no kasb etadi, ya'ni unda kamsitilishlarga qarshi kurashish istagi idealistik tushunchani shakllantiradi. Samarqand asarining asosiy syujet tugunida dunyo va inson muammosi bo'lib, unda inson ichki hislari qarama-qarshi tasavvurlarni yarata olishi, undan biror inson, ayniqsa, hech bir shoir qochib qutila olmaydigan nozik bir ichki kuch mavjudligiga urg'u beriladi. Undan tashqari G. Durand o'zining "Éléments pour une fantastique transcendante" nomli uchinchi kitobida referentlarning xayoliy tasavvurlari tarixiy yoki psixologik asosga ega ekanligini quyidagi jumalalarda ta'kidlaydi: "Bien loin d'être a priori universelle, la fonction d'imagination serait motivée par tel ou tel type psychologique défini, et le contenu imaginaire par telle ou telle situation dans l'histoire et dans le temps". Dyuransning ushbu tasavvur konsepsiyasi antropologik o'yinning ikki tomoni – ichki va va tashqi ta'sirlarning uyg'unligini bildiradi. Zero, insondagi bilishning psixologik holati Immanuel Kantning bilish va mantiq nazariyasiga ko'ra ichki tafakkur qilish faolligi bilan, uning mazmuni esa aniq bir holat va davrga bog'liq bo'ladi.

Haqiqatan ham, bu hol tuzumdan ramziy uzoqlashayotgan shoira Jahonning zamon bedodliklarini unutib, hayotdan zavq olish istagi orqali, mavjud tuzumning qulashi uchun fikran chaqirig'ini uqishimiz mumkin: **1-misol: asliyatda:** Djahane a déjà soulevé le bas de son voile, découvrant des lèvres sans fard; elle déclame un poème agréablement tourné dans lequel, chose étrange, on ne mentionne pas une seule fois le nom du khan. Non, on y fait subtilement l'éloge du fleuve Soghd, qui dispense ses bienfaits à Samarcande autant qu'à Boukhara et va se perdre dans le désert, aucune mer n'étant digne de recevoir son eau.

- Tu as bien parlé, que ta bouche s'emplisse d'or, dit Nasr, reprenant la formule qui lui est habituelle<sup>11</sup>.

**Tarjimada:** Bu payt Jahon bo'yoqsiz, lekin g'unchadek lablarini ko'rsatar darajada chodirasini ko'tarib, ruxsat ham so'rab o'tirmasdan yoqimli ovozda she'r o'qiy boshladi. Ajablanarlisi shunda ediki, u o'z she'rda biror marotaba ham xon nomini zikr qilmadi. She'rda o'zining hayotbaxsh suvlarini Samarqand va Buxoro yerlariga saxiylik bilan ulashib, birorta dengiz visoliga yetisha olmay, sahrolar ichra izzsiz yo'qolib ketayotgan So'g'd daryosining saxovati madh qilinardi. Jahon Gaston Bachelard "La materialisme rationel" nomli asarida tasvirlangan yer, havo, suv va olov unsurlarining modiiy mavjudligi haqida orzu qiluvchi rassomning ramziy xayollarini aks ettiradi. So'g'd daryosining sharqning eng katta regionlariga suv yetkazib berishi, uning sahrolar ichra o'tishining qadriyat sifatidagi tavsifi Jahon obrazini nihoyatda ta'sirchan qiladi. Yozuvchi suv va cho'l arxetipi (obrazlar, ramzlar) orqali inson tasavvurini kengaytiradi, sharqning marvaridlari hisoblangan sahroni ideallashtiradi. Bu esa O'rta Yer dengizlarigacha bo'lgan quyoshli sharq obrazi haqidagi g'arbliklar tasavvurini boyitishga yordam beradi. Mazkur parchaning tarjimada qayta yaratilishi esa sharqning mo'jizakor tabiatidan faxrlanish tuyg'usini shakllantiradi. Suvning "hayotbaxshlik" falsafasi tarjimada eksplitsit ifodalangan.

Biroq personaj xatti-harakati aql-idrokka asoslangan harakatiga qarama-qarshi butunlay teskari fikrlashga o'tadi.

**2-misol: asliyatda:** "La poétesse s'est penchée sur un vaste plateau rempli de dinars d'or, elle commence à introduire les pièces une à une dans sa bouche, tandis que l'assistance en compte le nombre à voix haute. Quand Djahane réprime un hoquet, manquant de s'étrangler, la cour entière, monarque en tête, part d'un rire franc"<sup>12</sup>

**Tarjimada:** Shoira patnisga engashib, og'ziga oltin tangalarni tiqa boshladi. Mulozimlar sanab turishdi. Shoira navbatdagi tangani og'ziga tiqa olmay o'qchib, nafasi bo'g'ilib qolganida esa xon boshliq butun saroy ahli chapak chalib kulib yubordilar. Shoira o'z jur'ati evaziga 46 ta oltin tangaga sazovor bo'ldi.

Bu parchada aql-idrokka asoslangan tafakkurli ayolning bosib o'tgan she'riy buyuklik timsoliga putur yetadi. Uning badiiy ta'sirchan mahorati o'zini hurmat qilmaydigan, beparvo, atrofiga befarq qaraydigan ochko'zlikka almashadi. Bundan tashqari shoirani masxara qilish

<sup>11</sup> Maalouf A., Samarcande, op.cit. – P.42

<sup>12</sup> Маалуф А., Самарқанд. – Б.42-43.

uchun xon boshliq saroy ayonlari yakdil bo'lib birlashadilar, holbuki, u ramziy shoirona qalbi bilan ulardan yuqori o'rinda turishi kerak edi. Ushbu holat yozuvchining aql va tasavvur etish o'rtasidagi dixotomiyaga ishorasi, birinchisi har doim hurmatga sazovor bo'lgan va ikkinchisi esa juda kamsitilgani natijasida yuzaga keladigan ruhiy holat.

O'rgangan odatlari va tushunchalarini hayot tarziga aylantirib bo'lgan inson uchun yangi hayot boshlash go'yo qayta tug'ilib o'z hayot varag'ini qayta yozishdek bir gap. Shuning uchun ham insonni ba'zan tush, orzular va xayolot duch kelishi mumkin bo'lgan real haqiqat bilan to'qnashuvdan qutqarib qolishi mumkin. Ayniqsa, ular tasavvurda aniq shakllangan bo'lsa, bunday obrazga nisbat ishonchli, balandparvoz, chiroyli nutqda namoyon bo'ladi. Masalan, **asliyatda:** *Elle se redresse. – Moi, je ne me résigne pas! Je suis dans ce palais entourée de troupes qui me sont fidèles, dans une ville qui désormais m'appartient, je me battraï jusqu'au bout, et si je meurs, ce sera comme une sultane.*

**Tajimada:** Jahon o'rnidan qo'zg'aldi:

–Men esa rozi emasman. Men o'z tarafdorlarim jasadlari bilan to'lgan mana shu saroyda qolaman. Chunki bu shahar bugun mening hukmimda. Men oxirgi daqiqalargacha kurashaman va o'lsam hukmdor sifatida o'laman! (203).

Sultonlarning kuchli ta'siri ositida, ayniqsa, Turkon Xotun bilan yelkama-yelka turib hokimiyatni boshqarishda ishtirok etgan ramziy ma'noda kuchidan ajralgan shoira Jahon maslakdoshi Turkon Xotun bilan bir xil taqdirga ega, uning so'nggi yo'li o'z maqsadi yo'lida jon bergan qat'iyatli inson o'limidir.

#### XULOSA

Tarjimon Jahon obrazini barcha detallari bilan yetkaza olgan, uning har uchala nutqida namoyon bo'lgan xarakteri kitobxonda inson shaxsiyatida ichki – qarama-qarshiliklar natijasida kuchli ayol obrazini gavdalandantira oladi: 1-misolda: “va se perdre dans le désert, aucune mer n'étant digne de recevoir son eau” (so'zma-so'z: cho'lda yo'qoladi, hech bir dengiz uning suvini olishga loyiq emas), “birorta dengiz visoliga yetisha olmay, sahrolar ichra izsiz yo'qolib ketayotgan”; 2-misolada: part d'un rire franc (so'zma-so'z: baland ovozdada kulmoq), “chapak chalib kulib yubordilar”; 3-misolda: “je me battraï jusqu'au bout” (so'zma-so'z: men oxirigacha kurashaman), “men oxirgi daqiqalargacha kurashaman” mazmunida ma'no darajasi kuchaytirilgan so'zlar orqali asliyat matni mazmundorligini tarjimada qayta yaratilishiga erishilgan.

Demak, Amin Maaluf falsafiy qarashlari g'arb va sharq madaniyatlari o'rtasidagi muloqotda o'zaro tafovutlar natijasida yuzaga kelgan zamonaviy dunyo inqiroziga ishora qilishi va uni bartaraf etishga chaqirishi bilan ahamiyatlidir. Yozuvchi pozitsiyasi asar personajlari xarakterida zamonaviy dunyo sharoitida madaniyatlarning birgalikda yashashi uchun yangi, eng maqbul yo'lni topishga urinishida namoyon bo'ladi, tarjimon mazkur holatlarni o'zbek tilida qayta yaratishda tarjimaning eksplikatsiya usulini keng qo'llaydi. Yozuvchi va tarjimon uslubining o'zaro uyg'unligi kitobxonga madaniy nuqtayi nazardan zamonaviy hodisalarning tarixiy sabablarini qidirishga va sharq xalqlariga xos asosiy qadriyatlarni sharhlashga imkon beradi.